# HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANISHIDA INVESTITSIYALARDAN FOYDALANISHNI BOSHQARISH



**Akmal Savurbayev**
**Jizzax viloyati hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha o'rinbosari**

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada hududlarga investitsion loyihalarni jalb etishning ahamiyati, ta'sir etuvchi omillar aniqlangan hamda investitsiyalarni boshqarish jarayonlari haqida ma'lumotlar tahlil qilib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** davlat, korxona, xorijiy sarmoyador, modernizatsiyalash, investitsion loyihalar, rivojlanish omillari, hududiy dasturlar, investitson salohiyat, moddiy va nomoddiy.

**Аннотация**

В данной статье определены факторы, влияющие на важность привлечения инвестиционных проектов в регионы, а также проанализирована информация о процессах управления инвестициями.

**Ключевые слова:** государство, предприятие, иностранный инвестор, модернизация, инвестиционные проекты, факторы развития, региональные программы, инвестиционный потенциал, материальный и нематериальный.

**Annotation**

This article analyzes the importance of attracting investment projects to regions, the factors affecting them, and data on investment management processes.

**Keywords:** state, enterprise, foreign investor, modernization, investment projects, development factors, territorial programs, investment potential, material and intangible.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash muhitida hududlarda investitsiyalarni samarali boshqarishning dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli, hududlar iqtisodiyotiga investitsiyalarni yo'naltirishda ilmiy asoslangan holda ish tutish, kapital sarmoyalarning qaytishini jadallashtirish, investitsiya loyihalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik jihatlariga e'tibor qaratish hamda investitsiya mablag'larining tarmoq va soha taqsimotiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borish juda muhimdir.

"Investitsion faollik mintaqa barqaror rivojlanishining eng asosiy omili, harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, u eng birinchi navbatda iqtisodiy va moliyaviy jarayonlar rivojlanish dinamikasiga, yalpi talab hamda yalpi taklif mutanosibligiga, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish rivojlanish darajasiga bog'liqdir. Shu sababli hududni barqaror rivojlantirishda davlat hokimiyati faoliyati asosiy sa'y - harakatlaridan biri iqtisodiyotning investitsiya sohasini tubdan o'zgartirish, uni oqilona va odilona taqsimlashdan iboratdir[1].

Investitsiyalarni boshqarish jarayoni murakkab bo'lib, bunda barcha omillarni hisobga olishimiz lozim. Fikrimizcha investitsiyalarni boshqarish bu qabul qilingan strategiya asosida investitsion faoliyatni doimiy ravishda amalga oshirish hamda resurslar bilan ta'minlanganlik ustidan investorlarning (davlat, korxona, xorijiy sarmoyador, fuqaro) nazoratidir. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, investitsion faoliyatni boshqarish jarayonini alohida guruhlarga bo'lib, ko'rib chiqishimiz mumkin (1-rasm)

| | |
|---|---|
| **Davlat nuqtai-nazardan investitsiya jarayonlarini boshqarish:** | •investitsion faollikni tartibga solish;<br>• rag'batlantirish;<br>• nazorat qilish;<br>• qonunchilikni ko'rib chiqish. |
| **Tarmoq nuqtai-nazardan investitsion loyihalarni boshqarish:** | •investitsiyalarni rejalashtirish va tashkil etish;<br>• investitsiyalarni yo'naltirish; |

[1]N.Norqobilov Investitsiyalardan samarali foydalanish asosida mintaqa iqtisodiyoti barqaror o'sishini ta'minlash. I.f.d.(PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Urganch.2022 y.22 B.

| | |
|---|---|
| | •investitsion loyihalarning zamonaviy metodlarini va texnik boshqruvini amalga oshiradi;<br>• investitsion loyihalar natijasini samaradorligini aniqlash;<br>• loyihalarning hayotiylik davri. |
| **Alohida xo‘jalik sub’ektlari nuqtai-nazardan investitsiyalarni boshqarish:** | •korxonaning investitsiya portfelini boshqarish;<br>•korxonaning monitoringi va sifatini baholash;<br>•qisqa muddatda investitsiya qo‘yilmalarini boshqarish |

**1-rasm. Investitsiyalarni boshqarish jarayoni**

Ushbu rasm ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, investitsiyalarni boshqarish jarayoni bir necha guruhlarga bo‘linadi. Davlat nuqtai-nazardan investitsiyalarni boshqarish jarayoni bevosita muhim ahamiyatga egadir. Bunda davlat asosan qonunchilik va ushbu jarayondagi barcha holatlarni nazorat qilib boradi. Investitsiya loyihalarini boshqarishda esa, asosan rejalashtirish va tashkil etish hamda loyihaning samaradorligini aniqlashdan iborat bo‘ladi. Korxona yoki alohida xo‘jalik subyektlarida investitsiyalarni boshqarish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

Korxonalarda qisqa muddatda kapital qo‘yilmasini boshqarish va uni foydaliligini nazorat qilish korxonaning kelajakdagi istiqboliga ham bog‘liqdir.

O‘z navbatida investitsiya jarayonlarini boshqarishning asosiy funksiyalari quyidagilardan iboratdir:

- investitsiya jarayonlarini rivojlanish strategiyasini qayta ishlash. Bu funksiyani amalga oshirish jarayonida rivojlanishning umumiy strategiyasi va tashqi iqtisodiy vositalarning bashorat hajmlarini butun tizimda hamda bundan tashqari investitsion faoliyatning butun ko‘rsatkichlarini uzoq muddatli davrda ham shakllantiradi, investitsiyalardan foydalanishning muhimligini ko‘rsatib beradi, yaqin istiqboldagi yechimlarni asoslaydi va investitsiya siyosatini qayta ishlab beradi;

- investitsiyalarni boshqarishning samarali axborot tizimini yaratish, boshqaruvning turli muqobil variantlarini asoslash. Bu bosqichda dastlabki tashqi hamda ichki ma’lumot manbalari shakllantiriladi, rivojlanishning asosiy parametrlari bo‘yicha monitoring tashkil qilinadi va shu asosida investitsiyalardan foydalaniladi;

- investitsion jarayonlarni turli jihatlarining tahlilini amalga oshirish. Hududda investitsion faoliyatning tezkor tahlili o‘tkazilib boriladi. Investitsiyalardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlarining asosiy dinamikasi tadqiq etiladi. Omillarning fundamental tahlili amalga oshiriladi. Investitsion jarayonlarga ta’sir etuvchi ko‘rsatkichlar ham aniqlanadi;

-investitsiyalardan samarali foydalanish va rejali rivojlantirishni amalga oshirish. Bu funksiyalarni amalga oshirish joriy rejalar tizimini qayta ishlaydi hamda investitsion resurslardan foydalanish bo‘yicha tezkor byudjet tuziladi. Bu rejaga asosan investitsion jarayonlarni rivojlanish strategiyasi qayta ishlab chiqiladi;

- investitsiya faoliyati doirasida samarali boshqaruv hamda nazorat tizimini amalga oshirish. Bu esa investitsiyalarni doimiy ravishda monitoring qilish imkoniyatini beradi;

- investitsion bozorni rivojlanishini tahlil qilish va bashoratlash, investitsion bozor konyukturasi hamda investitsion faoliyat bo‘yicha umumdavlat ehtiyojlarini aniqlashga imkon beradi;

- mamlakatning rivojlanish yo‘lida investitsiya siyosati yo‘nalishlari strategiyasini ishlab chiqish;

- davlatning yaxlit investitsion dasturlarini ishlab chiqish;

- investitsion faoliyatni nazorat qilish, tartibga solish,

rag‘batlantirish borasidagi qonunchilik faoliyatini ko‘rib chiqish;

- investitsion faoliyatni va barcha darajadagi tartibga solish chora-tadbirlarini amalga oshirish va monitoring qilish, shuningdek, alohida investitsion loyihalarni moliyalashtirish va qo‘llab-quvvatlash.

Ushbu biz qayd etib o‘tgan investitsiya jarayonlarini boshqarishning asosiy funksiyalari turli nuqtai-nazardan tahlil etilgan. Bizning fikrimizcha davlat investitsion siyosatini amalga oshirish, tartibga solish hamda shakllantirish ma’suliyati, shuningdek aniq xususiy investitsion jarayonlarni infrastrukturasini rivojlantirish va ta’minotini tashkil qilish asosida investitsion faoliyatni boshqarishning quyidagi standart funksiyalarini ham ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq jarayondir:

- tahlil va bashoratlashtirish;
- strategik, joriy, tezkor boshqaruv;
- faoliyatni nazorat qilish va tartibga solish;

Hududlarning investitsion strategiyasini shakllantirish murakkab jarayonlardan biri bo‘lib, u hudud investitsiya bozori konyukturasini bashoratlashga asoslanadi hamda investitsiya faoliyati shartlarini amalga oshiradi. Bu jarayonni murakkabligi shundaki, bu davrda hudud investitsiya strategiyalarni shakllantirish, investitsion resurslarni izlab topish, muqobil investitsiya variantlarini baholash bilan birga amalga oshiriladi va u hudud firmalarining imidjini oshiradi hamda uni rivojlanishi belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday investitsion strategiya tezda o‘zgarmaydi, u ushbu hududdagi firmalarning iqtisodiy o‘sishining yangi imkoniyatlari hamda tashqi shartlarini inobatga olgan holda davriy tartibga solishlarni talab etadi.

Hududda investitsion strategiyani shakllantirish shart-sharoitlari korxona va firmalarning iqtisodiy rivojlanishining strategik asosi bo‘lib xizmat qiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, hudud investitsiya strategiyasi firmalarning samarali rivojlanishini ta’minlaydigan bosh omil bo‘lib hisoblanadi hamda u investitsiyalarni samarali boshqarishga asoslanadi. Hudud korxonalarining investitsion strategiyasinini shakllantirish jarayoni bir -necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Boshlang‘ich bosqichda hudud investitsiya strategiyasi ishlab chiqiladi hamda uni shakllantirishni umumiy davri aniqlanadi. U investitsiya bozori va iqtisodiyot rivojlanishini oldindan ko‘ra olish, uning davriyligini baholash, korxona hamda firmalarning asosiy strategiyasini shakllanishi uchun yechimni qabul qilish, ularning tarmoqlarini o‘lchami kabi shartlar bilan bog‘liqdir.

Investitson faoliyatni shakllantirish maqsadi kapitalning qo‘shimcha o‘sish sur’atlarini ta’minlashga, investitsiyalarni daromadlilik darajasini o‘sishiga, moliyaviy investitsiyalash va texnologik o‘zgarishlarga, kapital qo‘yilmalar tuzilishining qayta ishlab chiqilishiga hamda pirovard natijada hududda iqtisodiy o‘sishga, aholining turmush darajasining oshishiga erishiladi.

Hududdagi korxona va firmalarning investitsion faoliyati strategik yo‘nalishlarini ishlab chiqish firmadagi barcha maqsadlar tizimiga asoslanadi. Bu jarayonda quyidagilar ishlab chiqilishi ko‘zda tutiladi:

- istiqbolli davr jarayonining alohida bosqichlarida turli investitsiyalash shakllari;
- investitsion faoliyatni tarmoq yo‘nalishlari;
- investitsion faoliyatni hudud yo‘nalishlari aniqlanadi.

Hududlarda investitsiya resurslarini shaklantirish strategiyasini ishlab chiqish korxona va firmalarning nafaqat investitsion faoliyatining unsuri balki, eng muhim moliyaviy strategiyasining unsuri ham hisoblanadi. U belgilangan hajmdagi investitsiya faoliyatini uzluksiz ravishda rag‘batlantirishni ta’minlaydi hamda shaxsiy moliyaviy vositalardan eng samaralisidan foydalanadi va uzoq muddatli davrda istiqbolda hududdagi korxona va firmalarning moliyaviy barqarorligini oshiradi. Hududlarda bu strategiyalarni ishlab chiqish quyidagi bosqichlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

Hudud investitsiya strategiyalarini amalga oshirish jarayonida ularning aniq maqsadlarini va strategik vazifalarini belgilangan tartibda qayta ko‘rib chiqish jarayonida tashqi va ichki omillarni bir-biriga moslashtiriladi. Tashqi omillar hudud firmalarining strategik investitsiya loyihalarini amalga oshirishni ko‘zda tutadi, shuningdek, investitsiya bozori konyukturasi o‘zgarishlarini bashoratlaydi.

Bizning fikrimizcha investitsiyalardan foydalanishni boshqarish samaradorligini takomillashtirishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim:

- hududda investitsiya strategiyalarini amalga oshirish jarayonida ko‘plab omillar hisobga olinishi lozim. Hudud investitsiya strategiyalarini ishlab chiqishni baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- hudud firmalarining umumiy strategiyasi bilan alohida firmaning investitsiya strategiyasini muvofiqlashtirish. Bu jarayonda strategiyani amalga oshirish bosqichlari, yo‘nalishlari hamda muvofiqlik maqsadlari tadqiq etiladi;

- hududda investitsiya strategiyasini ichki muvozanatlashganligi. Bu jarayonda investitsion faoliyat yo‘nalishlari va alohida strategik maqsadlar o‘rtasidagi bog‘lanishlar aniqlanadi va natijalari baholanadi;

- investitsiya strategiyalarini tashqi vositalar bilan muvofiqlashganligi. Bunda hududda ishlab chiqilgan investitsion strategiya bilan mamlakatning investitsion muhitdagi o‘zgarishlar muvofiqligi ybaholanadi, hamda investitsiya bozori konyukturasi bashoratlanadi;

- hudud investitsiya strategiyasi resurslarini salohiyatini hisobga olgan holda amalga oshirish darajasi. Bu jarayonda avvalo, firmalarning xususiy manbalari hisobidan moliyaviy resurslarni shakllantirish imkoniyati va salohiyati ko‘rib chiqiladi. Kelajakda hudud investits iya strategiyalarini amalga oshirish imkoniyatlari moliyaviy, texnologik, energetik nuqtai-nazardan tahlil etiladi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlashimiz lozimki, mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida hududlarda investitsiyalarni samarali boshqarish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yuqorida investitsiyalarni boshqarish mexanizmi nazariy jihatdan ko‘rib chiqildi, bu esa investitsiyalarni boshqarishning maqsadi hamda asosiy vazifalarini amalga oshirishda muhim o‘ringa egadir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi”.

2. O‘zbekiston Respublikasining 25.12.2019 yildagi O‘RQ-598-sonli “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida” gi Qonuni..

3. Бланк И. А. Управление инвестициями предприятий. - К.: Ника-Центр, Эльга. 2003. – С. - 102.

4. D. Komilov, G.Umirova. Xorijiy investitsiyalar tahlili. Uslubiy qo‘llanma. - Jizzax: 2023.

5. Bekmurodov A.Sh., Korieva YO.K. va boshqalar. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. - T.: TDIU, 2011. - 196 b.

6. Korneva YO.K., Nematov I.U., Kattaev N.T. Xorijiy investitsiyalar. Ta’lim texnologiyasi. - T.: TDIU, 2010. - 154 b.

7. Umirova Gulmira. (2023). The need to attract foreign investments to the national economy on a large scale. *Academia Science Repository*, *4*(5), 314–319. Retrieved from https://academiascience.com/index.php/repo/article/view/696

8. Gulmira, U. (2023). Theoretical basis of management of the financial stability of the banking system. *International Journal of Advance Scientific Research*, *3*(05), 126-130.

9. Dilshod To'ychi o'gli, K., Abdujalil o'g'li, Y. F., & Abdujalil o'g'li, A. B. (2023). Analysis of the Current State of the Bank Risk Management System. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, *4*(1), 60-64.

10. Kamilov, D., & Shayzaqova, S. (2024). Mamlakatga investitisiyalar oqimini rivojlantirish maqsadida ixtisoslashgan hududlarni jalb qiluvchanligini oshirish. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, *2*(4), 105-110.